

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SIFATLARNING QO‘LLANILISHI

Boymirzayev Muhammad**Bozorova Zuhra****Mamadaliyeva Sevinch***DTPI, Filologiya va tillarni o‘qitish:**o‘zbek tili 3-bosqich talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning sifat darajalari haqidagi fikrlari yoritilgan bo‘lib, hozirgi o‘zbek grammatikasida ham qo‘llanilayotganligi isbotlab berilgan. Bundan tashqari Navoiy svetafori yaratganmi degan savolga isbotlari bilan javob keltirilgan.

Kalit so‘zlar: fonetik usul, svetafor, sifat darajalari, rang-tus sifatlari, inson umrining uch fasli.

Abstract: This article discusses Alisher Navoi's ideas about qualitative degrees and proves that they are still used in modern Uzbek grammar. In addition, the question of whether Navoi created the traffic light is answered with evidence.

Keywords: phonetic method, traffic light, quality levels, color adjectives, three seasons of human life.

O‘zbek tili boy va xilma-xil, shuning uchun uni o‘rganish va chuqur tushunish uchun asosan lugatlar va ilmiy asarlar qo‘l keladi. Ushbu maqolada o‘zbek tilida mavjud sifat so‘z turkumiga oid birliklarning xususiyatlari tahlil qilinadi. Sifatlar otlarning sifatini, xususiyatini, holatini, rangini, shaklini va boshqa xususiyatlarini ifodalaydi. Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi mustaqil so‘z sifat deyiladi: qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq. Boshqa so‘z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg‘un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, Gul qizil deganda turg‘un (statik) belgi, Gul qizardi deganda esa o‘zgaruvchi (dinamik) belgi namoyon bo‘lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Ravish ham belgi bildirishiga ko‘ra sifat bilan o‘xshashdir. Ammo ravusha harakat va holat belgisini bildirsa, sifat predmetning belgisini bildiradi. O‘zbek tilida sifatlar quyidagi guruhlariga bo‘linadi.

Xususiyat bildiruvchi sifat, asosdan anglashilgan narsa/predmetga me‘yordan ortiq egalik belgisini bildiruvchi sifat: *aqlli, kuchli;*

Holat bildiruvchi sifat, narsa/mavjudotning holat yoki vaziyatini turg‘un belgi sifatida ifodalaydi: *go‘zal, o‘ktam, ko‘rkam;*

Shakl bildiruvchi sifat, bu turdagi sifat narsa/predmetning tashqi ko‘rinishini ifodalaydi: *dumaloq yumaloq, aylana;*

Rang-tus bildiruvchi sifat, narsa va buyumning rangini ifodalaydi: *oq, ko'k, qizil, qora, sariq*;

Maza-ta'm bildiruvchi sifat, predmetning mazasini bildiradigan sifatlar: *shirin, achchiq*;

Hid bildiruvchi sifat : *xushbo'y, badbo'y*;

O'lchov bildiruvchi sifat : *tor, uzun, yaqin, katta*;

O'rin bildiruvchi sifat, yasama va nisbiy sifatlar: *ichki, tashqi, devoriy*;

Payt bildiruvchi sifat, yasama va nisbiy sifatlar ham deyiladi: *kuzgi, yozgi, qishki*.¹

Rang- tus, sifatleri haqida gapirar ekanmiz bevosita Alisher Navoiyning ham rang bildiruvchi va sifat darajalari haqidagi qarashlariga to'xtalib o'tamiz." Muhokamat ul lug'atayn" asarida : "Biror sifat yoki rang-tusni orttirma darajada ifodalash uchun so'zning bosh qismidan oldida bir «p» yo «m» harfini qo'shib qo'yadilar. Masalan: op-poq, qop-qora, qip-qizil, sap-sariq, yum-yumaloq, yapyassi, op-ochug', chup-chuqur; bu nav' Turkiy so'zlar ham xiyla topilad. «m» harfi orttirilgani misoli: ko'm-ko 'k, yam-yashil, bo 'm-bo 'z", - deb ta'kidlab o'tadi. ²Aytish joizki, sifat darajalarining bu xil ko'rinishlari bugungi kungacha qo'llanishda davom etmoqda. Hozirgi o'zbek adabiy tilida **fonetik usul** orqali hosil qilinadigan orttirma daraja sifatleri fikrimizning tasdiqi bo'ladi. Masalan: qopqora, yap-yapaloq, dum-dumaloq yoki urg'uli tovushning cho'zilishi: (u'zun), (bala'nd), (chiro'yli). Bundan tashqari Alisher Navoiy bir g'azalida ham sifat so'z turkumiga oid, so'zlarni svetafor shaklida radif sifatida qo'llagan. "Demak Alisher Navoiy svetafor haqida XV asrdayoq aytib o'tgan ekan", - degan fikrlar ham mavjud bo'lib, bu fikrning qanchalik o'rinli ekanligini quyida g'azaldan baytlar keltirib tahlil qilib, aniqlaymiz.

Xil'atin to aylamish jonon qizil, sorig' yashil,

Shu'layi ohim chiqar har yon qizil, sorig', yashil.

Ya'ni: jononim qizil, sorig', yashil rangli to'n kiymish, shundan beri yurakdan chiqadigan ohim shu'lalari ham qizil, sorig, yashil tusdadir... Xo'sh, shoir bunda faqat odamni ko'zda tutmoqdami? Olamni ham ko'zda tutmayaptimi? Xudoni-chi? Biz bugun shundoq deb ayru-ayru savol qo'yamiz. Lekin bu tushunchalarni Navoiy bir-biridan ayirmagan, uning falsafasi ularni bir butunga jamlagan, «vohid» deb baholagan. Shoirning «jononi»da olam yashaydi, u olamda esa, qatrada quyosh aks etganidek, kamolotning oliy timsoli bo'lmish oliy xilqat, yuksak haq-haqiqat, Alloh aks etadi... Yor to'ni, olam libosi, haqiqat manzarasi rang-barang, bas, ularning qarshisida turgan Navoiy hayratlari ham, shu'layi ohu fig'onlari ham rang-barangdir... Shoir endi ana shu rang-baranglik ohangini rivojlantiradi, o'zining yorga (olamga,

¹ R. Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik 247- bet

² " Muhokamat ul-lug'atayn" 28-29- bet

xudoga) nisbatan kechinmalari orqali ma'naviy suvratlar, lavhalar chizadi, ko'zimiz o'ngida ruh kitobining rang-barang sahifalari ochiladi:

Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin,

Kim esar ul dasht aro har on qizil, sorig', yashil.

Ya'ni, ishq sahrosini ohim samumi (garmseli)dan gulshan (rang-barang) etdim, zero ul dasht aro endi qizil, sorig', yashil shamollar esadi... Olamni idrok etishda Navoiy darajasiga ko'tarila olmaganlar uchun bu, shubhasiz, mubolag'a. Ammo yuqorida aytganimiz shoir dunyoqarashiga suyanchiq bo'lgan olam-odam birligi nuqtai nazaridan esa – ayni haqiqat. Alloh odamni azizu mukarram qilib, olamning sarvari etib yaratgan, bas, uning chekkan ohi ishq sahrosini gulshan etsa va ul dasht aro qizil, sorig', yashil shamollar essa ne ajab?!...³

Alisher Navoiy bu g'azalida ranglardan mohirona foydalanib, ajoyib asar yaratgan. Bu asardagi qizil, sariq va yashil ranglari svetaforni emas, balki ilohiy ishqqa muhtalo bo'lgan oshiq holining ko'p stamlarda har xil tusga kirishi, faqrlarning egnidagi xirqasining ranglarini va ba'zi o'rinlarda hayotning yaxshi yomon kunlarini bahor, yoz va kuz fasllarining ha ranglariga ishora qilgan. Bu g'azalda keltirilgan ranglar ketma ketligi shunchaki she'r qofiyasiga mos holda avval qizil, keyin sariq va oxirida yashil so'zlari qo'llanilgan.

Xulasa o'rnida aytish joizki, biz bugungi kunda qo'llab kelayotgan ba'zi sifat turkumiga oid so'zlar va ularning daraja ko'rsatgichlari XV asrga mansub asarlarda ham ask etgan ekan. Eng muhim ma'lumot esa Navoiy svetaforni yaratmagan degan fikrga ega bo'lishimizdir. Navopiyning ijodini ijodi kabi qomusiy ravishda tadqiq va tahlil etish, bu jarayonda, ayniqsa, yoshlarda rag'bat uyg'ota olish bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik 247- bet; TOSHKENT — 2019
2. B. Abdushukurov "O'zbek tili tarixi"
3. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"
4. <https://t.me/oriftolib>
5. <https://www.scopus.com>

³ "Navoiyning hayratomuz ixtirolari" Inomjon Abdiyev maqola